KAVSAR TURDIYEVANING BOLALAR UCHUN YOZGAN SHE'RLARI ORQALI BOLALARDA AXLOQIY TARBIYANING SHAKLLANTIRISH

D.M.Yuldasheva filologiya fanlari doktori
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs 23.35-guruh talabasi
Muzrobxonova Amirsoyibxon Ayyubxon qizi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek bolalar adabiyotining iste'dodli vakillaridan biri Kavsar Turdiyevaning bolalar uchun yozgan she'rlari tahlil qilinadi. Shoira ijodida aks etgan axloqiy-tarbiyaviy g'oyalar, jumladan, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, tabiatga ehtirom kabi insoniy fazilatlarning bolalar ongida shakllanishidagi o'rni yoritiladi. She'rlarning badiiy-estetik xususiyatlari hamda yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashdagi ahamiyati misollar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Kavsar Turdiyeva she'rlari bolalarning axloqiy dunyoqarashini boyituvchi, ularda ijobiy fazilatlarni qaror toptiruvchi muhim tarbiyaviy vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Kavsar Turdiyeva, bolalar adabiyoti, bolalar she'riyati, axloqiy tarbiya, ma'naviy tarbiya, tarbiyaviy g'oya, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, badiiy-estetik tarbiya, yosh avlod, ma'naviy barkamollik.

O'zbek bolalar she'riyatining yorqin namoyondasi Kavsar Turdiyeva 1958-yilning 6-avgustida Toshkent shahridagi ziyoli oilalarning birida tug'ilgan. Kavsar Turdiyeva yoshligidan bilimga chanqoq bo'lib, 1975- yili Toshkent shahri Chilonzor tumanida joylashgan Mirzo Ulug'bek nomidagi 201-sonli umum ta'lim maktabini oltin medalga, imtiyozli bitirib, Toshkent Davlat universitetining "Jurnalistika" fakultetiga o'qishga kirgan. 1981-yil Sankt-Peterburg Davlat universitetini tugatgan, bitiruv yilidagi diplom ishining mavzusi "O'zbekiston bolalar matbuotining shakllanishi" bo'lib, u a'lo baho bilan baholangan. K.Turdiyeva sobiq "Pioner Vostoka" gazetasining muxbiri bo'lib ishlagan, ushbu gazetaning hozurgi nomi esa "KLASS" deb ataladi. Aspiranturani O'zbekiston

fanlar Akademiyasining til va adabiyot institutida o‘qidi, keyin Toshkent Pediatriya Tibbiyot institutida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi bo‘lib mehnat qildi. Hozirda esa Toshkent Pediatriya Tibbiyot institutining “O‘zbek tili va adbiyoti” kafedrasining mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

Yosh Kavsarxon o‘zida bolaligidan she’riyatga bo‘lgan qiziqishini payqagan va o‘quvchilik yillaridayoq bolalar gazetasida uning birinchi “Tong” nomli she’ri bilan chop etildi. 1983-yilda esa shoiraning bolalar uchun yozilgan ilk kitobi “Varrak” nomi bilan “Yoshlar” nashriyotida chop etildi. Kavsar Turdiyeva o‘zining ustida ishlab, qobiliyatini ishga solib, ko‘plab she’riy to‘plamlar chiqardi: “O‘ylanmayman,o‘ylanmayman!” (1987-yil), “Qush bo‘lib uchgan ona” (1994-yi), “Raqamlar bo‘ylab sayohat” (2000-yil), “Obod mahallam ko‘chalari”, “Hayvonot bog‘i”, “Salomat bo‘ling!”, “Ona isi” (2003-yilda). Shoiraning she’rlari bolalar qalbining keng va beg‘ubor so‘qmoqlarini oydinlashtirishga, bolalarning nozik psixologik va emotsional jarayonlarini ko‘rsatib berishga bag‘ishlanadi. Kavsar Turdiyevaning diqqat markazidan she’r yozayotga vaqtida bir soniyaga ham bolalarning rivojlanish jarayonidagi ma’naviy va axloqiy tarbiya masalalari qochmagan. “Varrak” she’riy to‘plami uchun davlat tomonidan “Yoshlar” mukofotiga sazovor bo‘ldi.

2.3.2-rasm. Kavsar Turdiyeva She’riy to‘plamlari. Chapdan o‘ngga, Piyodalar qo‘shig‘i, Kattamanmi yo kichik, Bir shahar bolasimiz.

“Cho‘lpon” nashriyotiga 1997-yilda adiba bir she’riy to‘plamni topshirgan, aynan shu to‘plam mazkur yilning eng yaxshi asari deb e’lon qilindi va mukofotlandi.

Kavsar Turdiyevaning nomzodlik dissertatsiyasi 1994-yilda “Hozirgi zamon o‘zbek bolalar she’riyatining ma’naviyat muammolari” mavzusida nomlangan. Hozirda esa “So‘nggi davr o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanish tamoyillari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Xalqaro maydonlarda ham o‘zbek adabiyotini nufuzini ko‘rsatib kelmoqda. Masalan, Moskva va Yalta shaharlarida bo‘lib o‘tgan hamdo‘stlik anjumanlarida O‘zbekiston vakili sifatida ishtirok etadi.

Kavsar Turdiyeva bolalar prozasida ham mohirona qalam tebratgan. “Gulxan” jurnalida nashr etilgan adibaning turkum hikoyalari, “Allo, 03mi?” nomli ertak o‘quvchilar tomonidan iliq qabul qilindi.

Biz yoshligimizda ko‘radigan, sevib tomosha qiladigan bolalar auditoriyasi uchun mo‘ljallangan telenovella “Zumrasha” nomli kino jurnali ham aynan Kavsar Turdiyevaning hikoyalari negizida tayyorlanar ekan. Aynan shu ma’limot men uchun ajoyib yangilik bo‘ldi, chunki “Zumrasha”ni yangi qismlarini intiqlik bilan kutib yurardim. Kino haqiqatdan ham hajviy janrda va bolalar va o‘smir yoshdagi bolalarga tarbiyaviy mavzularni chiroyli hajvlar bilan yetkazilgan.

Kavsar Sheraliyena tomonidan qoralangan she’rlaning ko‘plariga bastakorlar tomonidan kuylar bastalangan. Qo‘shiqlar har yili davlatimizning nufuzli tadbirlarida mustaqillik, Navro‘z, konstitutsiya kuni va 8-mart “Xalqaro xotin qizlar”kuni munosabati bilan tashkillanadigan bayramlarda baralla ijro etiladi. Har yili an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinuvchi “Prezident archasi” nomli bolalar yangi yil bayrami madhiyasining muallifi ham aynan shu shoira hisoblanadi.

Davraga bizni to‘plab birlashtirar har yili
Barchani o‘rtoq qilib, sirlashtirar har yili
President archasi, istiqlol tumorchasi,
Quvonchlari qaynagan, yuragimiz parchasi.

Kavsar Turdiyeva yosh tomoshabinlar kinochiligida ham qator ishlar olib borilmoqda. Adibaning “Zumrasha” kulgili kino jurnali uchun tayyorlangan “Ma’naviyatli bo‘laylik”, “Sumalak va tilak”, “Yodlasam bo‘lmasmidi” kabi syujetli qismlari kino tanqidchilar va kino anjumanlarda yuqori baholangan. Bundan tashqari shoiraning qator

she’rlari quvnoq bolalar uchun qo‘shiqlar yaratilgan va zavq bilan hozirgacha ijro qilinadi, yosh tomoshabinlar kinolari, va animatsion filmlar uchun qo‘shiq matnlarini yozadi. Uning yozgan ssenariylari asosida “Katta oyi” nomidagi film, “Irkitvoy va Kirketjon”, “Sumalak ming tilak” va “Zumrat va Qimmat” kabi animatsion filmlar ishlab chiqilgan va yosh tomoshabinlar e’tiboriga havola etilgan.

Kavsar Turdiyevaning “Sintaktik ertak”, “So‘z turkumlariga atalgan she’rlar” mavzusidagi she’rlar ona tili darslarida, “Alpomishni o‘qib”, “Navoiy”, “Cho‘lpon” singari she’rlari esa katta sinf adabiyot darslarida foydalanish uchun mo‘ljallanib yozilgan. Maktabgacha ta’lim va umum ta’lim maktablaridagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun “Yo‘l harakati qoidalari”, “Raqamlar bo‘ylab sayoxat”, “Sehrli harflar oroli” singari mavzudagi she’rlar shular jumlasidandir.

Bir – mitti raqam,
U ikkidan kam.
Ko‘kda bitta oy,
Ochadi chiroy.
Va bitta quyosh
Ufqqa qo‘yar bosh
Bittadir yana
Vatan va Ona.

Ushbu she’r Kavsar Turdiyevaning “Raqamlar bo‘ylab sayohat” she’riy toplamidan olingan, bir soni haqidagi she’r hisoblanadi. Shoira ijodidagi mavzular xilma-xilligini shu yerdan bilib olsak bo‘ladi. Yuqoridagi she’ri bilan bolalarni har tomonlama rivojlantiradi deb bemalol aytishimiz mumkin. Masalan, bolalarning emelentar matematik tashavvurlaridagi son sanoq bilimlarini boyitishga xizmat qiladi, chunki, bu yerda oy va quyoshning, Vatan va onaning bitta ekanligi bolaga tushuntirib beryapti. Bundan tashqari bilim ko‘nikmalarini, oyning osmonda turishini, quyoshning chiqib so‘ng botishi haqidagi axborotni bolaga bermoqda.

Shoira faqatgina o‘zbek tilida emas balki rus tilida ham huddi o‘zbek tilidagi kabi barobar ijod qilib kelmoqda, uning ijodining mahsuli sifatida 2001-yil “Shuxrat” medali bilan mukofotlandi.

Ijodkorning ijodidagi bolalar she’riyaning o‘ziga xosligi haqida so‘z borarkan, uning asarlari mazmuni va ijodkorona shirasi bilan qolgan bolalar ijodkorlarining asarlaridan farq qiladi. Kavsar Turdiyevaning yosh tinglovchilar uchun yozgan she’rlari qiziqarli mazmunga ega, o‘qilishi va aytilish jihatidan murakkab bo‘lmagan so‘zlar shodasidan tashkil topgan bo‘ladi. Shoiraning bolalarni o‘ziga tortib oluvchi mavzulardagi she’rlani yozishi ham uning yutuqlaridan biri hisoblanadi. U ko‘pincha ona tabiat, axloq, oila, do‘stlik kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzularga takror va takror murojaat etadi.

Har kun bizlar tomonga
Quyosh Tushar mehmonga
Uning yorqin nurlari
Uning uzun qo‘llari
Har giyohga yetadi
Silab siypab ketadi
Qishda olib nurini
Tashlab ketar qo‘rini
Ko‘rpalarning qatiga
Pechkalarning ortiga
Kulib turgan yuzlarga
Qalbi iliq so‘zlarga.

Kavsar Turdiyeva Saylanmasidan olingan “Quyosh ko‘chasi” nomli she’ri tabiat haqida yozilgan bo‘lsada, uning mavzu ko‘lami anchayin keng. Masalan, bolalarni tabiat, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyityapti, quyoshning har kuni chiqishi va botishini, uning nurlari yorug‘ va issig‘ bo‘lishini, o‘simliklar quyosh nuri bilan tirik ekanligini, qizda quyosh nurlari kamayishini va havo harorati pasayishi kabi ko‘plab atrof-olam haqidagi bilimlarni shu birgina she’r orqali berishimiz mumkin. Bundan tashqari esa shoira

ushbu she’ri bilan bolalarga xushmuomilalik, ochiq chiroy bolish ijobiy hislat ekanligini uqtirishga harakat qilmoqda. Yuragida iliq so‘zlari bor bo‘lgan, kulib turuvchi yuzlarga quyosh hamisha yashirinib oladi degan ma’no yashirin.

K.Turdiyevaning bolalar uchun yozilgan she’rlari odatda oddiy va sodda so‘zlar bilan qoralanadi, bu esa bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning nutqini asta-sekin o‘stirishga yordam beradi. She’rning poydevorini qofiya hamda ritm tashkil etadi, bularsiz she’rlar oddiy so‘zlar jamlanmasi bo‘lib qoladi. Aynan qofiya orqali she’r tinglovchini o‘ziga jalb qiladi va eslab qolishni hamda yod olish bosqichlarini osonlashtiradi. Shoiraning juda ko‘plab asarlari ayni shu jihatlari bilan yosh kitobxonlar va pedagoglar tomonidan e’tirof etilgan. Kavsar Turdiyeva ijodining yana bir boshqalardan ajralib turadigan, o‘ziga xos bo‘lgan farqi shundaki, u she’r yozish jarayonida bir qolibga tushib qolmagan, an’anaviylikdan yiroqda, uslub va janr jihatdan xilma-xil asarlar yaratadi. Ijodkorning zamon bilan hamnafas ijod qilishini va zamonaviy bolalarning zamonaviy didlariga mos keladigan ijod mahsullarini yaratishini yuqoridagi unga va ijodiga berilgan ta’riflardan bilib olsak ham bo‘ladi.

Har bir o‘zbek ijodkorining yaratgan san’at asarlarida bo‘lganidek, bu o‘zbek qizining asarlarida ham tarbiyaviy va axloqiy mafkuralar chuqur ildiz otgan. Ammo qolganlardan farqi shundaki, bu mafkuralar barcha insonlar uchun emas balki ertangi kunimiz egalari bo‘lgan, farzandlarimiz, yosh avlod vakillari uchun qaratilgan va ularning kamol topishi uchun xizmat qiladi. Bolalarga qandaydir axloqiy tushunchani shunchaki o‘rgatish mumkindir, lekin agar uni qisqa she’riy satrlar yoki maftunkor, shu bilan birga bolalar tushinishi qulay bo‘lgan so‘zlar va syujet bilan ifodagan maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kavsar Turdiyeva ham bolalarni tarbiyali bo‘lishlari uchun barcha bolalar diqqatini o‘ziga qarata oladigan she’rlar juda ko‘p yozgan.

Vatan u nimadir? Qalbim so‘roqlar
Yuragim boylangan,
Yaqin yiroqlar.
Vatan vujudimning
Tug‘ilgan joyi

Vatanim jismida
Men ham bir bo‘lak
Vatanim mengayu
Men unga kerak.

Masalan yuqoridagi she’rning o‘zida bolalarga vatanparvarlik tuyg‘usini qanday bo‘lishini tushuntirib berishimiz mumkin. Insonning tug‘ilgan joyi, kindik qoni to‘kilgan go‘shasi, o‘sib-ulg‘aygan yer vatan ekanligini bolaga shunchaki so‘zlar bilan gapiradigan bo‘lsan bola buni tushunmaydi, buni tushinish uchun hali judayam kichiklik qiladi. Lekin shoiraning yuqoridagi she’rini bolaga o‘qib bersak, yod oldirsak va tushuntirib, bolaga singdira olsak mana shu bolalarning yoshi uchun mos bo‘ladi va biz maqsadimizga yetgan bo‘lamiz.

Kavsar Turdiyeva badiiy adabiyotning, aniqrog‘i, bolalar badiiy adabiyotining faqatgina hikoyanavislik va she’r yozish san’ati bilan cheklanib qolmagan. Uning she’riy topishmoqlari ham bolalar orasida judayam mashxur va sevib tinglanadigan yo‘nalishlardan biri.

She’riy topishmoqlar bolalar nutqini o‘stirish bilan birga ularning kognitiv jarayonlarini rivojlantirishga ko‘mak beradi. She’riy uslubda berilgan jumboqlar bolalarni yanada ko‘proq o‘ylashga va fikr yuritishga majbur qiladi. Ularni tasavvur doiralari kengayadi, tafakkur o‘sadi, idroki o‘tkirlashadi va xotiralari mustahkamlanadi.

Sakrar o‘xshab uloqqa
Hech gap kirmas quloqqa
Qulog‘i bo‘lsa ham biz
Uni deymiz ……. (Quloqsiz).

Salomlashib albatta,
Joy berar, kirsa katta
Yuzi nurli, oftobli
Bu bolalay ……. (Odobli).

Ko‘chadan kirgan mahal
Darrov qo‘lini yuvar

Kiyimi ham toza-da

Demak,bu qiz ……. (Ozoda).

Men mana shu she’riy topishmoqlarni Marg‘ilon shahridagi “Derin Kids” nomli oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti katta guruh tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda yod olganmiz. Kundalik mashg‘ulotlarimiz orasidagi dam olish daqiqalarida tez-tez bu she’riy topishmoqlarni takrorlab yuramiz. Bunday ijodiy namunalar bolalarni qiziqishlariga oddiy she’rlardan ko‘ra ko‘proq sabab bo‘ladi. Amaliyotim davomida shunga guvoh bo‘lganman.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsan bolalar asarlari muallifi Kavsar Turdiyeva ijodiy jarayonda o‘z yo‘nalishiga va kitobxon-tinglovchilariga egadir. Bundan tashqari shoira ommaviy talabalarning jonkuyar tashkilotchisi hisoblanadi. U o‘z rahbarligida turli uchrashuvlar o‘tkazadi, shulardan biri, Zulfiyaxonim Isroilovaning 100 yillik yubileyi. Ijodga qiziquvchi yoshlar uchun 20 yildan ko‘proq “Nishona” nomidagi klubga rahbarlik qilgan, bu klubning eng yaxshi ijodiy ishlari esa to‘plam sifatida nashr etilgan, ijodkor Toshkent shahar Yunusobod tumani ayollar hay’ati azoligida ham faoliyat yuritgan, O‘zbekiston Yozuvchilar uyishmasi a’zosi, uning qalamiga mansub 20 tadan ortiq badiiy kitoblar nashr qildirilgan, “Toshkesaklar mamlakatida” asari esa “Sog‘lom avlod” yilida tashkillangan dramatik asarlar ko‘rik-tanlovida faxrli 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan, aynan shu o‘rinni xalqaro bolalar tashkiloti YUNISEF tomonidan 2004-yilda tashkillangan tanlovda “Tozalik – go‘zallik” kitobi bilan ham oldi.

Kavsar Sheraliyevna tomonidan o‘zbek kitobxonlari jahon adabiyotidan bahramand bo‘lishlari uchun, S.Marshak, Chuykovskiy va qator tatar xalqi lirikasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan, “Shuxrat” medali bilan 2001-yil taqdirlangan, 2009-yil esa “Eng ulug‘, eng aziz” tanlovida esa badiiy adabiyot nomzodligi bo‘yicha tanlov g‘olibi, 2010- yil “Sevimli bolalar shoiram” nomzodligida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kavsar Turdiyeva. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

2. Kavsar Turdiyeva. Bolalar uchun she’rlar to‘plami. – Toshkent: Sharq, 2018.

3.To‘xtasin Adashboyev. Bolalar adabiyoti va tarbiya masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

4.Bahriddin Karimov. Bolalar adabiyoti nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2012.

5. Naim Karimov. Adabiyot va ma’naviyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.

6. Ibrohim Haqqulov. Badiiy tafakkur va tarbiya. – Toshkent: Akademnashr, 2019.